

**KITOBGA BO‘LGAN E‘TIBOR HAR QANDAY SHIDDADLI
RIVOJLANISHDA HAM O‘Z O‘RNINI YO‘QOTMAYDI.**

Alisher Navoiy nomidagi

Milliy kutubxona

yetakchi mutaxassisi

Jonazaqova Sh

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kitobga bo‘lgan e‘tiborning zamonaviy, shiddatli rivojlanish davrida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligi masalasi tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar va internetning keng tarqalishiga qaramay, kitob inson tafakkurini rivojlantirish, chuqur bilim berish va ma‘naviy boyitishda muhim vosita bo‘lib qolayotgani asoslab beriladi. Maqolada kitob va zamonaviy texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning afzallik va kamchiliklari ham yoritiladi.*

Xulosa qilib aytganda, har qanday texnologik taraqqiyot sharoitida ham kitobning jamiyat va ta‘lim tizimidagi o‘rni o‘zgarmasligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar. *kitob, kitobxonlik, kutubxona, raqamli texnologiyalar, e-kitoblar, ta‘lim tizimi, bilim va tafakkur, axborot manbalari, o‘qish madaniyati, innovatsiyalar, raqamli ta‘lim, kognitiv rivojlanish, zamonaviy jamiyat.*

Abstract: *This article examines the idea that attention to books does not lose its significance even in an era of rapid and modern development. Despite the widespread use of digital technologies and the internet, books remain an essential tool for developing human thinking, providing in-depth knowledge, and enriching spiritual and intellectual life. The article also highlights the relationship between books and modern technologies, as well as their respective advantages and disadvantages.*

In conclusion, it is scientifically argued that the role of books in society and the education system remains unchanged, regardless of technological progress.

Keywords: *books, reading culture, library, digital technologies, e-books, education system, knowledge and thinking, information sources, reading habits, innovations, digital education, cognitive development, modern society*

Dunyoda taraqqiyotga erishgan barcha xalqlarning taraqqiyoti avvalo kitobga, ma‘rifatga asoslanganligini ko‘rish mumkin. Kitoblar orqali inson o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘yadi, orzular sari intilish kuchini topadi. Kitob o‘qigan inson dunyoqarashini kengaytiradi, xotirasi mustahkamlanadi, nutqi ravonlashadi, xulqi poklanadi. Kitobning qalbga kirib boradigan sehrli kuchi insonga eng og‘ir va qiyin vaziyatlarda ham ma‘naviy yordam beradi. Tashqi dunyoning eng ajoyib manzaralarini bir kitob orqali ko‘rish, eng buyuk tafakkur egalari bilan kitob orqali suhbatda bo‘lish mumkin. Kitob insonni ilimga chanqoq, tafakkurga boy, mustaqil va prinsipial fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Kitobga mehr qo‘yish, uni o‘qish va unga hurmat bilan qarash mustahkam ma‘naviyatga sabab bo‘ladi. Bugungi tez sur‘atlarda taraqqiy etib borayotgan zamonda odamlarning aksariyati

kitob o‘qishga yetarlicha vaqt ajratmayapti. Zamonaviy axborot texnologiyalari, turli elektron vositalar ko‘nglimizni ma’lum darajada chalg‘itmoqda. Biroq, kitob o‘zining asrab-avaylanadigan qadriyati, mustahkamligi va bilim manbai sifatidagi ahamiyatini yo‘qotmayapti. Har bir oila, har bir yosh o‘z hayotida kitobga o‘rin ajratishi, kitob bilan do‘st bo‘lishi zarur. Kitobdan foydalangan odam qalban, ruhiy jihatdan bardam bo‘ladi. O‘z fikrini to‘g‘ri va erkin bayon qila oladi.

XXI asr jadal rivojlanayotgan davrda kitobxonlarning kitobga, kutubxonalarga bo‘lgan ehtiyojlari yana ham oshayotganini ko‘rib demak davr kitobning o‘rnini hali ham saqlab turganini guvohi bo‘lamiz. Kitob har qanday davrning buyuk kashfiyoti bo‘lib qolayotgani, kitobga bo‘lgan talabni kamaymagani kutubxonalarni kengaytirishga yana bir misol o‘laroq xizmat qilsa arziydi. Kitob birdan-bir axborot manbai bo‘lmagan hozirgi kunlarda ham eng ishonchli va mustahkam bilim ombori bo‘lib xizmat qiladi. Insoniyat taraqqiyot sari intilayotganda ham, kitob orqaga emas, zamon bilan birga, balki undan ham oldinda boradi. Kitob o‘qigan inson har qanday yobon muhitda ham o‘zini yo‘qotmaydi, mustahkam hayotiy tamoyillar asosida yashaydi. U o‘z e’tiqodi, bilim va madaniyati bilan boshqalarga ibrat bo‘la oladi. Kitob inson uchun umr yo‘lidagi eng yaqin va sadoqatli hamroh, eng yo‘qolmas boylik ekanligini unutmaslik lozim [1].

Bugungi kunda biz texnologiyalar oqimi jadallashgan davrda yashayapmiz. Qisqa reelslar diqqatni jalb qilayotgan bir davrda kitoblarga ehtiyoj bormikan degan savol tug‘iladi. Katta bir kitobni kichik bir ma’no bilan ham ochib berish mumkin degan tushunchalar paydo bo‘la boshlagan. Lekin har qanday yuksalish yo‘lida kitob va unga bo‘lgan ehtiyoj va bilimga bo‘lgan ehtirom yotadi. Kitob har bir so‘zning sehrini, ma’no-mazmunini o‘z o‘rnida saqlab tura oladigan nodir kashfiyotdir. So‘zning sehrini kitobda yaqqol seza olmasak kitobni varoqlashdan ne foyda axir dono xalqimiz bejizga “Ustiga kitob ortilgan eshak, na olim-u, na nodon beshak” deb aytishmagan. Zamonaviy yutuqlar zahirida ham, insoniyat tarixining muhim burilishlarida ham kitoblar asosiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan. Har qanday elektron vosita, internet va boshqa texnologik yangiliklar kitobning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. Chunki kitob asrlar davomida o‘zining nodir va betakror xususiyati, inson ruhiyatiga yaqinligiyu, samimiyligi bilan ajralib turadi. Kitob va mutolaaga mehr qoygan jamiyat har qanday davlatning mustahkam taraqqiyotiga zamin yaratadi. O‘zgaruvchan dunyoning eng muhim qadriyatlaridan biri bo‘lib qolayotgan kitob, inson hayotining barcha jabhalarida zarur bo‘lgan bilim, madaniyat, mahorat, odob va hayotiy tajriba manbaidir. O‘z kitobini qadrlagan, mutolaa madaniyatini rivojlantirgan xalq hech qachon tanazzulga uchramaydi, orzu-umidlari yo‘lida oldinga intiladi. Kitob — inson ongida iz qoldiradigan, tafakkurini yuksaltiradigan, hayotga boshqacha ko‘z bilan qarashga undaydigan eng ulug‘ vosita sanaladi [2].

Kitob o‘qish shunchaki ma’lumotlarni olish emas, balki chuqur fikrlash ham demakdir. Uning ishonchliligi, manbalarning kengligi miyaning tasavvur qilishni talab qiladi. Har qanday internet manbalaridan ham ishonchli manbani faqatgina kitobda uchratish mumkin. Aslida har qanday texnologiya rivojida kitob poydevor vazifasini bajargan. Ya’ni o‘rganishlar va o‘zgarishlar kitob orqali bo‘lgan desak, adashmagan bo‘lamiz. Bilimlar jamlanib bir kitob holiga kelgan bo‘lsa, texnologiya mana shu

bilimlarning yana bir mahsulidir. Kitob o‘qimaydigan jamiyatda hech qachon yuqori natijalarga erishib bo‘lmaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, kitob do‘konlari, kutubxonalar faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi-yangi asarlar chop etilmoqda, bolalar va yoshlar uchun turli loyihalar yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu esa jamiyat hayotida ma’naviyat ko‘chqilarini yuzaga keltirmoqda, insonlar o‘rtasida bilimga intilish, kitobga hurmat kuchaymoqda [3].

Kelajak avlodni ma’rifatli, bilimli, tafakkuri keng, madaniyatli qilib tarbiyalash uchun ham, eng avvalo, o‘zimizda kitob o‘qishga bo‘lgan ehtiyojni oshirishimiz kerak. Inson ma’naviyatining eng go‘zal poydevori — kitob bilan bog‘langan. Ma’naviy boylik sifatida kitobning qadri har doim baland bo‘lib qoladi. Taraqqiyot yo‘lida har qanday zamonaviy vosita, texnologik rivojlanishlar ham kitobni to‘liq o‘rnini bosa olmaydi, aksincha, kitob bu taraqqiyotlarning ham mazmun va mohiyatini boyitadi, ularga kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Kitob, insonning ko‘nglini tozaradi, ruhini uyg‘otadi, o‘zlikni anglashga, yangi ufqlar sari intilishga yordam beradi. U hayotga axloqiy va estetik mezonlar bilan baho berishni o‘rgatadi, insonni nafaqat bilimli, balki tarbiyali, samimiy, farovon, iymonli bo‘lishiga undaydi. Kitobga bog‘liq jamiyatda odob-axloq, insof, hayotga muhabbat, xalq va yurtga sadoqat kabi go‘zal fazilatlar shakllanadi [4].

Raqamli texnologiya hozirgi kunda yangi yozuvchilar uchun keng imkoniyatlar kalitini tutqizmoqda. Ma’lumotlarni keng auditoriyaga taqdim qilish va asarning imkoniyatini ochib berish, targ‘ib qilish va boshqalar. Targ‘ibotlarni amalga oshirish davomida e-kitoblarni ham keng tarqalganini va buning ancha qulay va arzonligini tan olmay ilojimiz yo‘q. Ha albatta kitoblar bugungi kunda nafaqat qog‘ozda balki qo‘limizdagi gadjetlarda ham mujassam. Ularni har qanday vaziyatda ham bemalol ochib ko‘rish va mutolaa qilish imkoniyati bor, ammo kitoblarni aynan kitob ko‘rinishida ya’ni qog‘oz kitoblarni tanlash ancha foydali va samaraliroq. Bu ham kamroq chalg‘ishni va iroda kuchini bekorga sarflamaslikka yordam beradi. Telefon yoki boshqa qurilmalar yordamida bilim olish, albatta foydali. U sayohatlarda zerikishni oldini oladi va sizni tafakkur qilishga undaydi. Boshqa tomondan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning 90 foizidan ortig‘i smartfon yoki shaxsiy kompyuterga ega. Shu sababli, ko‘plab olimlar o‘quvchilar ushbu vositalardan foydalanib, raqamli ta’lim tizimlari va o‘quv materiallariga kirish orqali ta’lim resurslari yetishmovchiligi muammosini kamaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Global miqyosda qaralganda, e-kitoblar ma’lumotlarga yanada qulay va oson kirishni ta’minlovchi asosiy vositaga aylangan.

Emori universiteti olimlari kitob o‘qigan insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo‘lishini isbotlashdi. Tadqiqot mualliflari kitob o‘qish miqdagi asab tolalari sonini oshirishini ta’kidlashmoqda. Kitob, ilm va taraqqiyotga asoslangan zamonaviy hayotimizda ham, inson uchun umr yo‘lidagi eng muhim yo‘ldosh bo‘lib qoladi. Hamma o‘z hayotiga bir bor sinchiklab nazar solsa, muvoffaqiyatli, baxtli, aql va tafakkuri keng insonlardan o‘zi istagan cho‘qqiga ko‘tarilganlarni ko‘rsa, ularning hayotida kitobga bo‘lgan mehr, hurmat kuchli ekanligini anglaydi. Natijada, jamiyatda ijtimoiy va madaniy sohalar rivojlanadi, yoshlar ilmga, yoshlik energiyasiga, o‘z orzu-istaklariga qat’iy intiladi. Shu bois, har qanday taraqqiyot shiddatini, texnologik yutuqlar, zamonaviy vositalar,

25-Avgust, 2026-yil

informatsion qudratlarni muhim hisoblagan holda, bugungi, ertangi avlod ongida kitob — bilim, madaniyat va ma’naviyat manbai sifatidagi o‘rni, ahamiyati aslo so‘nmasligi uchun har birimiz harakat qilishimiz lozim [5].

Xulosa qilib aytganda, texnologik taraqqiyot qanchalik jadallashmasin, kitob insoniyat tafakkuri va ma’naviy rivojining ajralmas qismi bo‘lib qoladi. U chuqur bilim, mustahkam fikrlash va keng dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Shuning uchun ham kitobga bo‘lgan ehtiyoj hech qachon yo‘qolmaydi, aksincha, yangi shakllarda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova K., Matchanov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Nosir”, 2009. – 352 bet.
2. G‘oziev E. G‘. Psixologiya. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2008. – 352 bet.
3. G‘oziev E. G‘. Umumiy psixologiya. 1–2-kitob. – Toshkent, 2002.
4. G‘oziev E. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1988. – 104 bet.
5. Haydarov F. I., Xalilov N. I. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “Mehnat” nashriyoti, 2007. – 178 bet.
6. Internet saytlar: www.tdpu.uz; www.ziynet.uz; www.google.com